

"FARHOD VA SHIRIN" DOSTONI. KOMIL INSON OBRAZI

FarDU filologiya fakulteti 2-bosqich

Talabasi

C

Annotation: Ushbu maqolada mutafakkir shoir Alisher Navoiyning "Farhad va Shirin" dostoni haqida, hamda , tasavvuf haqidagi qarashhlari va dostonida-gi Farhodning "komil inson" obraz ostida talqin qiligan. Shuningdek, komil inson mavzusi tasavvufiy ta'limotning tarkibiy qismi sifatida misollar, tahlillar orqali keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: obraz, ezgulik, tasavvuf, komil inson, dard, oshiqa, ma’shuqa.

Abstract: In this article, the thinker poet Alisher Navoi's epic "Farhad and Shirin" is interpreted, as well as his views on Sufism and the image of Farhad as a "perfect man" in his epic. Also, the theme of the perfect person as a component of mystical teachings is widely covered through examples and analysis.

Key words: image, goodness, mysticism, perfect person, pain, lover, mistress.

Navoiyning "Farhad va Shirin" dostoni o‘z goyaviy mazmuni jihatidan "Xamsa"dagi har bir doston singari maxsus belgilarga egadir. Navoiy bu doston hahramonlari Farhod, Shirin, Mehinbonu, Shopur, Bahrom, Xoqon, Mulkoro obrazlarini tom ma’nodagi ijobjiy tiplar sifatida yaratgan. Bular orasida dostonda asosiy o‘rin egallovchi, harakatlar bilan to‘la ta’milangan obraz Farhoddir. Dostondagi birorta boshha obraz Farhodchilik to‘la ko‘rsatilgan emas.

Farhod va Shirin nuqson siz qahramonlardir. Ular go‘zallik, oljanoblik, sevgi, sadoqat, poklik, kamolot timsolidirlar.

Dostonning badiiy libosi juda ko‘rkam. Unda Navoiyona mahorat o‘zining yuksak ifodasini topgan. Navoiy bu dostonida nafaqat sevgi-muhabbatni balki ""komil insoniylik"" tuyg‘usini ham juda chiroylı obrazlab tasvirlab bergen.

Ayniqsa, tasavvuf haqidagi qarashlarini ham dostoniga o‘zgacha yo‘sinda singdirgan va kitobxonga juda chiroylı tasvirlab berilgan. Navoiy nazdidagi tasavvuf inson qalbida osoyishtalik toptiruvchi, Allohning taqdiriga rozilik hissini uyg‘otuvchi go‘zal axloqlar majmuasidir. Quyida bir nechta g‘azallari bunga misol bo‘la oladi:

Birovga musallam tariqi tasavvuf-ki, zotida mavjud emastur taxalluf.

(Tasavvuf ichki ziddiyatlardan xoli bo‘lgan kishigagina o‘z yo‘lini ochadi).

Tasavvuf rizo ahlidin yaxshi axloq erur, istilohoti zeb-u takalluf.

(Tasavvuf Allohning taqdiriga rozi bo‘lganlarning yaxshi axloqi bo‘lib, go‘zal va takallufli atamalari bor).

Ma’lumki, musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan, butun dunyoda mashhur bo‘lgan, Islom diniga asoslanuvchi buyuk ta’limot –bu tasavvuf. Tasavvufning maqsadi insonni ruhiy, ma’naviy jihatdan poklash, ya’ni komil insonni tarbiyalashdir. Shu o‘rinda tasavvuf haqida, hamda tasavvufga dostondan misollar keltirish mumkin.

Tasavvufda 2 ta yo‘l bor. Birinchi sahv yo‘li: ogohlik yo‘li, hushyorlik yo‘li yoki naqshbandiylik yo‘li deb talqin qilinadi.

Inson har bir so‘zini, har bir amalini, har bir harakatini, nazoratini qo‘lida ushlashi kerak. Farhod xuddi shunday shaxs.

Erursen shoh, agar ogoh sensen,
Agar ogoh sensen, shoh sensen.
-degan g‘oya ham shu dostonda.
Dedi: "Har ikki qilmish odamizod
Tafakkur birla bilmish odamizod".

Yana bir voqeani keltirish mumkin. Uni "Salosil" g‘origa qamashganda u "ismi a’zamni" bilar edi. "Ismi A’zam"ni o‘qisa qulflar ochilar edi. Lekin qulflarni ochilganini qorovullar ko‘rmaydi. Xusrav qorovullarga: "Agar bu qochib ketsa, hammangni boshingni tanangdan judo qilaman"—degandi. Lekin Farhodda bu hol har kuni takrorlanaverdi. U tog‘-u tosh, dala-dashtlarga borib, hayvonlar bilan suhbatlashib qaytib kelar edi. Buni bilgan qorovullar Farhodni bu farishta, bu malak deb atashadi. Bu odam emas, bu avliyo deyishadi, unga ta’zim qilib aytishadi:"Nega sen qulflarni ochding-u, chiqib qochib ketmading?"—deb so‘rashganda Farhod javob beradi:"Sizning boshlig‘ingiz meni qo‘ydi, agar men ochsam sizlar ham halok bo‘lasizlar-ku"—dedi.

Qorovullar:"Mayli, biz rozimiz, sening ketishingga. Sen haqiqiy malak, haqiqiy farishta ekansan-ku"— deganlarida ham Farhod ketmaydi.Yana bir bor Farhodning olivjanobligi, mardligi, haqiqiy komil insonligi shu o‘rinda ko‘rinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, "Farhod va Shirin" dostonida Navoiy Farhod va Shirin kabi ideal qahramonlar obrazini yaratdi. Ular eng oliy insoniy ideallar uchun yashadilar va shu maqsadga, saodatga ibrat bo‘lib qoladilar. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni ezmilik va sevgini ulug‘lovchi shohona ijod namunasidir. Shuning uchun u asrlar osha yashab kelmoqda. Chunki insoniyat barqaror ekan, oliy insoniylikni sharaflovchi ijod mudom u bilan hamnafas bo‘lib yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2020
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin(To‘liq nasriy tabdili). – Toshkent: Yangi asr avlod, 2021.
3. Саримсоқов Б.И.Бадиийлик асослари ва мезонлари. Тошкент –2004.–Б.7.